ISNN 3030-3907

2025/4
VOLUME 6

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 6

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA‘LIM ASOSIDA TARBIYALASH

O‘rinboyeva Elnora Furqat qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi Toshkent viloyati Bekobod tumani
E-mail: e6445214@gamil.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim maktablariga integratsiya qilish jarayonida inklyuziv ta’limning o‘rni va ahamiyati tadqiq etiladi. Maqolada bolalarning jismoniy va ruhiy holatidan kelib chiqqan holda ularni tarbiyalash metodlari, Individual Ta’lim Dasturlari (ITD) hamda maktablarda "to‘siqsiz muhit" yaratish mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalitso‘zlar: inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiy adaptatsiya, tutor, ITD, universal dizayn, integratsiya, korreksion pedagogika.

Аннотация. В данной статье исследуется роль и значение инклюзивного образования в процессе интеграции детей с ограниченными возможностями в общеобразовательные школы. В статье анализируются методы воспитания детей исходя из их физического и психического состояния, индивидуальные образовательные программы (ИОП) и механизмы создания «безбарьерной среды» в школах.

Ключевые слова:Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с ОВЗ, социальная адаптация, тьютор, ИОП, универсальный дизайн, интеграция, коррекционная педагогика.

Annotation. This article explores the role and significance of inclusive education in the process of integrating children with disabilities into general education schools. The article analyzes methods of educating children based on their physical and mental state, Individual Educational Programs (IEP), and mechanisms for creating a "barrier-free environment" in schools.

Keywords:Keywords: inclusive education, children with disabilities, social adaptation, tutor, IEP, universal design, integration, correctional pedagogy.

KIRISH.

XXI asr ta’lim tizimining bosh maqsadi — barcha bolalar uchun, ularning jismoniy, intellektual yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, teng huquqli bilim olish imkoniyatini yaratishdir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, 2020-yilgi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi bu boradagi huquqiy poydevor hisoblanadi.Imkoniyati cheklangan bolalar kimlar? Bular sog‘lig‘ida uzoq muddatli nuqsonlari bor, ya‘ni bularga kiradi:tayanch harakat a‘zolari shikastlanganlar.Bu guruhga asosan,bolalar (BTSB)bilan og‘rigan boalar kiradi.Ularning ko‘pchiligi aqliy jihatdan sog‘lom

ISSN 3030-3907

bo‘lsa-da motorika va harakatlanishida yordamga muhtoj.Sensor nuqsonli bolalar:ko‘rish hamda eshitishida nuqsoni bor bolalar.Keyin nutqida og‘ir nuqsoni borlar.Alaliya ,afaziya va og‘ir duduqlanish holatidagilar.Psixofizik rivojlanishida kechikishi bo‘lganlar.Ruhiy rivojlanish sustlashishi va autizm spektri buzilishilar bo‘lgan bolalar. Natijada o‘quv jarayonida to‘siqlarga duch keladigan bolalardir. Ilmiy nuqtai nazardan, ularni jamiyatdan ajratib (segregatsiya), faqat ixtisoslashtirilgan internatlarda o‘qitish ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini zaiflashtiradi. Shu sababli, inklyuziv ta’lim orqali ularni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir

Bugungi kunda jahon miqyosida inson huquqlari va ijtimoiy adolat tamoyillari ta’lim tizimining asosiy poydevoriga aylandi. Imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta’lim olish huquqi BMTning "Nogironlar huquqlari to‘g‘risida"gi konvensiyasi va YUNESKOning bir qator deklaratsiyalarida o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasida ham 2020-2025-yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingan bo‘lib, bu soha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Uzoq yillar davomida Imkoniyati Cheklangan Bolalarni faqat ixtisoslashtirilgan internatlarda, jamiyatdan ajratilgan holda ta’lim olib kelishdi. Bu esa ularning kelajakda mustaqil hayotga moslashishini qiyinlashtirdi. Inklyuziv ta’lim esa ushbu bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan bir safda o‘qitish orqali ularni ijtimoiylashtirishni maqsad qiladi. Biroq, maktablarning metodik va texnik tayyor emasligi ushbu jarayonda asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida inklyuziv ta’lim alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalarning, ularning jismoniy, aqliy yoki psixologik holatidan qat’i nazar, umumiy ta’lim muassasalarida teng huquqli asosda bilim olishlarini ta’minlovchi pedagogik tizimdir. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo‘ymasdan, balki ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish va integratsiya qilishdan iboratdir[1].

Inklyuziv ta’limning muhim jihati shundaki, u faqatgina imkoniyati cheklangan bolalar uchun emas, balki barcha o‘quvchilar uchun qulay, moslashuvchan va samarali ta’lim muhitini yaratishni nazarda tutadi. Bu tizimda har bir bolaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlari inobatga olinadi. Natijada ta’lim jarayoni differensial va individuallashtirilgan holda tashkil etiladi.Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi quyidagi pedagogik yondashuvlarga amal qilishi zarur: birinchidan, har bir o‘quvchining psixologik va fiziologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish; ikkinchidan, dars jarayonida differensial va individual topshiriqlardan foydalanish; uchinchidan,

ISSN 3030-3907

interaktiv va innovatsion metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish. Shuningdek, o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, vizual va audio vositalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, inklyuziv ta’lim jarayonida sog‘lom va imkoniyati cheklangan bolalar o‘rtasida hamkorlik muhitini yaratish, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni shakllantirish ham muhim vazifalardan biridir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi rolini ham bajaradi.Shunday qilib, inklyuziv ta’lim zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ta’lim tizimining insonparvarlik mohiyatini namoyon etadi hamda har bir bolaning to‘laqonli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

METODLAR.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim sharoitida tarbiyalash jarayoni o‘ta murakkab va ko‘p qirrali pedagogik hodisa bo‘lganligi sababli, ushbu tadqiqotni tashkil etishda kompleks va multidissiplinar yondashuv metodologik asos qilib olindi. Tadqiqotning metodologik strategiyasi bolaning jismoniy yoki intellektual yetishmovchiligini faqat tibbiy nuqtai nazardan emas, balki uni jamiyatning to‘laqonli sub’ekti sifatida shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik modelga tayanadi.Tadqiqot ishining metodologik apparati L.S. Vygotskiyning "nuqsonning ijtimoiy kompensatsiyasi" nazariyasi hamda zamonaviy "inklyuziv ekologiya" tamoyillari asosida shakllantirildi. Mazkur yondashuv tadqiqot davomida qo‘llaniladigan metodlarni nafaqat ma’lumot yig‘ish vositasi, balki bolaning yashirin imkoniyatlarini (rezervlarini) aniqlash va ularni rivojlantirish mexanizmi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Metodlar tizimi quyidagi konseptual talablarga muvofiq tanlab olindi:

Ob’ektivlik tamoyili: Bolaning rivojlanish dinamikasini sub’ektiv baholardan xoli ravishda, ilmiy diagnostik ko‘rsatkichlar asosida o‘rganish.

Gumanistik yo‘naltirilganlik: Tadqiqot metodlarining bola shaxsiga zarar yetkazmasligi va uning qadr-qimmatini saqlagan holda amalga oshirilishi.

Varyativlik: Har bir nuqson turi (ko‘rish, eshitish, tayanch-harakat) uchun metodik vositalarning differensial (tabaqalashgan) holda moslashtirilishi.

Deskriptiv-pedagogik kuzatuv (Descriptive Observation):Kuzatuv jarayoni "strukturalashtirilgan" va "erkin" formatlarda olib boriladi. Bunda bolaning dars davomidagi:

Kognitiv faolligi: Topshiriqlarni qabul qilish tezligi va diqqatning barqarorligi.

Emotsional barqarorligi: Notanish vaziyatlar yoki murakkab masalalarga nisbatan hissiy reaksiyasi.

ISSN 3030-3907

Ijtimoiy integratsiyasi: Tanaffus va dars paytida tengdoshlari bilan aloqa o‘rnatish chastotasi.

Kuzatuv natijalari maxsus "Pedagogik monitoring kundaligi"ga tushirilib, dinamik o‘zgarishlar tahlil qilinadi.

Eksperimental-korreksion metodlar:Tadqiqotning asosi sifatida "Universal Design for Learning" (UDL) tamoyili qo‘llaniladi. Bu metodik yondashuvda ta’lim materiallari uch xil usulda taqdim etiladi:

Ko‘p qirrali taqdimot (Multiple means of representation): Matnli, audial va vizual (grafik, video) axborotlar uyg‘unligi.

Ko‘p qirrali ifoda (Multiple means of expression): Bolaga o‘z bilimini namoyish etishda tanlov berish (yozma, og‘zaki yoki texnik vositalar yordamida).

Ko‘p qirrali jalb qilish (Multiple means of engagement): Bolaning qiziqishlariga mos keladigan motivatsion omillarni qo‘llash.

Psixodiagnostik va Sotsiometrik tahlil:

Imkoniyati cheklangan bolalarning sinf jamoasidagi o‘rnini aniqlash uchun J. Moreno sotsiometriyasi metodikasidan foydalaniladi. Ushbu metod orqali "ijtimoiylashuv indeksi" hisoblab chiqiladi. Bu indeks inklyuziv muhitda tarbiyalanayotgan ICHBning sog‘lom bolalar tomonidan qanchalik qabul qilinishini matematik tarzda ko‘rsatib beradi. Shuningdek, bolaning o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash uchun "Dembo-Rubinshteyn" metodikasidan foydalaniladi.

Individual Ta’lim Dasturlarini (ITD) modellashtirish:

Tadqiqot doirasida har bir o‘quvchi uchun individual pedagogik model yaratiladi. ITD tuzishda "SWOT-tahlil" (Kuchli taraflar, Zaif taraflar, Imkoniyatlar va To‘siqlar) metodidan foydalaniladi. Bu usul bolaning jismoniy nuqsonini emas, balki uning saqlanib qolgan imkoniyatlarini (masalan, yaxshi xotira, badiiy qobiliyat) birinchi o‘ringa olib chiqish imkonini beradi.Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar majmuasi imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim muhitiga moslashtirish jarayonini tizimli o‘rganish imkonini berdi. Tanlangan metodologiya nafaqat miqdoriy ko‘rsatkichlarni to‘plash, balki har bir bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini sifat jihatidan tahlil qilishga xizmat qildi. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarning ishonchliligi kross-tahlil va matematik-statistik qayta ishlash usullari orqali tasdiqlandi. Ushbu metodologik yondashuv inklyuziv tarbiya samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur empirik bazani shakllantirdi.

NATIJALAR.

Inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash o‘ziga xos murakkab pedagogik tizimni tashkil etadi. Amaliy

ISSN 3030-3907

kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bunday bolalarni sog‘lom tengdoshlari muhitiga jalb etish ularning nafaqat bilim olishiga, balki jamiyatning faol a’zosi sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda har bir bolaning jismoniy va ruhiy holatidan kelib chiqqan holda maxsus yondashuvlar qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega.

Nuqson turlariga ko‘ra o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari:

Tayanch-harakat a’zolari buzilgan bolalar: Ushbu toifadagi bolalarni o‘qitishda asosiy e’tibor jismoniy to‘siqlarni bartaraf etishga va ularning harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratiladi. Amaliyotda bunday o‘quvchilar uchun dars jarayonida maxsus raqamli texnologiyalar, ovozli buyruqlar va interaktiv vositalardan foydalanish yuqori samara beradi. Bu ularning yozma topshiriqlarni bajarishdagi qiyinchiliklarini yengishga va darsda mustaqil faoliyat yuritishiga imkon yaratadi.

Sensor (eshitish va ko‘rish) nuqsonli bolalar: Ko‘rish va eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun axborotni qabul qilishning muqobil yo‘llari ishlab chiqiladi. Eshitishida muammosi bor o‘quvchilar uchun dars materiallari ko‘proq vizual ko‘rinishda (grafiklar, suratlar, subtitrli videolar) taqdim etilsa, ko‘rishida nuqsoni bor bolalar uchun audio-materiallar va taktil (teginish orqali his qilinadigan) vositalardan foydalaniladi. Bunday yondashuv bolaning sezgi a’zolari orqali atrofdagi ma’lumotlarni to‘liqroq anglashiga yordam beradi.

Nutqiy nuqsonlar va autizm spektri buzilishlari:Inklyuziv ta’lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash o‘ziga xos murakkab pedagogik tizimni tashkil etadi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bunday bolalarni sog‘lom tengdoshlari muhitiga jalb etish ularning nafaqat bilim olishiga, balki jamiyatning faol a’zosi sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda har bir bolaning jismoniy va ruhiy holatidan kelib chiqqan holda maxsus yondashuvlar qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega.

Nuqson turlariga ko‘ra o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari:

Tayanch-harakat a’zolari buzilgan bolalar: Ushbu toifadagi bolalarni o‘qitishda asosiy e’tibor jismoniy to‘siqlarni bartaraf etishga va ularning harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratiladi. Amaliyotda bunday o‘quvchilar uchun dars jarayonida maxsus raqamli texnologiyalar, ovozli buyruqlar va interaktiv vositalardan foydalanish yuqori samara beradi. Bu ularning yozma topshiriqlarni bajarishdagi qiyinchiliklarini yengishga va darsda mustaqil faoliyat yuritishiga imkon yaratadi.

Sensor (eshitish va ko‘rish) nuqsonli bolalar: Ko‘rish va eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun axborotni qabul qilishning muqobil yo‘llari ishlab chiqiladi. Eshitishida muammosi bor o‘quvchilar uchun dars materiallari ko‘proq

ISSN 3030-3907

vizual ko‘rinishda (grafiklar, suratlar, subtitrli videolar) taqdim etilsa, ko‘rishida nuqsoni bor bolalar uchun audio-materiallar va taktil (teginish orqali his qilinadigan) vositalardan foydalaniladi. Bunday yondashuv bolaning sezgi a’zolari orqali atrofdagi ma’lumotlarni to‘liqroq anglashiga yordam beradi.

Nutqiy nuqsonlar va autizm spektri buzilishlari: Nutqida nuqsoni bor bolalarni o‘qitishda logopedik mashg‘ulotlar dars jarayoni bilan uyg‘unlashtiriladi. Autizm alomatlari bo‘lgan bolalar uchun esa "vizual rejalashtirish" usuli qo‘llaniladi. Ya’ni dars jarayoni aniq piktogrammalar va rasmlar orqali bosqichma-bosqich ko‘rsatiladi. Bu boladagi kutilmagan hayajon va qo‘rquv hissini kamaytirib, uning diqqatini jamlashiga va jamoaga moslashishiga xizmat qiladi.

Tashkiliy-metodik yondashuvlar:

Inklyuziv tarbiya jarayonida tutor (yordamchi o‘qituvchi) faoliyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tutor bola va o‘qituvchi o‘rtasida "ko‘prik" vazifasini o‘tab, o‘quvchining darsdagi individual topshiriqlarni tushunishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, bolalarni baholashda ularning shaxsiy yutuqlari va kichik qadamlari birinchi o‘ringa qo‘yiladi.Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv asosda o‘qitish jarayoni ularning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi va o‘zlariga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi. Sog‘lom tengdoshlari bilan doimiy muloqotda bo‘lish esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirib, kelajakda mustaqil hayot kechirishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati nafaqat maktab muhiti va pedagogik mahoratga, balki oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi tizimli hamkorlikka ham bevosita bog‘liqdir. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalashda ota-onalar asosiy hamkor va bolaning shaxsiy rivojlanishidagi eng yaqin ko‘makchi sifatida ko‘riladi. Oila muhiti bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi shakllanadigan va maktabda olgan bilim-ko‘nikmalari amaliyotda mustahkamlanadigan asosiy maskandir.

Inklyuziv o‘qitish natijasida bolalarda nafaqat o‘quv fanlarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yaxshilanadi, balki eng muhimi – ijtimoiy muloqot va mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalari shakllanadi. Erishilgan natijalar ta’lim muassasasi, maxsus pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi uzviy hamkorlik inklyuziv tarbiyaning muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy omil ekanligini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim muhitida tarbiyalash jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu tizim shunchaki ta’limiy model emas, balki chuqur ijtimoiy transformatsiya jarayonidir. Yuqorida keltirilgan natijalar inklyuziv muhitning bolalar psixologiyasiga ijobiy ta’sirini tasdiqlasa-da, amaliyotda bir qator tizimli muammolar hamon saqlanib qolmoqda.

ISSN 3030-3907

Muhokama qilinishi lozim bo‘lgan eng muhim jihat — bu umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining maxsus pedagogik tayyorgarligi darajasidir. Ko‘pgina pedagoglar inklyuziv sinflarda dars o‘tishda metodik "bo‘shliq"ga duch kelishmoqda. Masalan, autizm yoki og‘ir nutqiy nuqsoni bor bola bilan ishlashda o‘qituvchi nafaqat fanni bilishi, balki defektologiya va psixologiya elementlarini ham amalda qo‘llay olishi shart. Bu borada o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimini qayta ko‘rib chiqish, ularga ICHB bilan ishlashda amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi qisqa muddatli kurslar emas, balki fundamental tayyorgarlik zarurligini ko‘rsatadi.Ijtimoiy stereotiplar va psixologik to‘siqlar.Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati jamiyatning ma’naviy yetukligiga bevosita bog‘liq. Kuzatuvlarimiz shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom bolalar va ularning ota-onalari o‘rtasida hamon ICHB o‘quvchilariga nisbatan "tibbiy cheklanganlik" tamoyili ustuvorlik qilmoqda. Muhokama jarayonida shuni ta’kidlash joizki, haqiqiy inklyuziya — bu sog‘lom bolalarning ICHB bilan birga o‘sishi orqali bag‘rikenglikni o‘rganishi demakdir. Agar sog‘lom bola yoshligidanoq o‘zidan farq qiladigan tengdoshi bilan muloqot qilsa, kelajakda jamiyatda nogironligi bor shaxslarga nisbatan kamsitish holatlari kamayadi.

Metodik yutuqlarga qaramay, maktablarning jismoniy holati (panduslar, maxsus liftlar, sanitar-gigiyenik sharoitlar) inklyuziyani to‘liq amalga oshirishga imkon bermayapti. Ayniqsa, sensor nuqsoni bor bolalar uchun darsliklarning yetishmasligi ularni dars jarayonida chetda qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, maktablarni "to‘siqsiz muhit"ga aylantirish masalasi shunchaki qurilish ishi emas, balki bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlovchi pedagogik zaruriyat sifatida ko‘rilishi kerak.

Inklyuziv ta‘lim — bu uzoq davom etadigan va barcha tomonlarning (davlat, maktab, oila) hamjihatligini talab qiluvchi jarayon. Faqatgina qonuniy bazani yaratish kifoya emas, balki har bir maktabda inklyuziv madaniyatni shakllantirish, o‘qituvchiga tutor yordamini berish va ota-onalar bilan uzviy muloqotni yo‘lga qo‘yish lozim. Shundagina biz imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatning to‘laqonli, mustaqil va baxtli a’zosi sifatida tarbiyalashga erishamiz.

XULOSA.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’lim asosida tarbiyalash jarayoni shunchaki ta’lim tizimidagi texnik yangilanish emas, balki jamiyatning insoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartiruvchi ma’naviy jarayondir. Ushbu tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikdagi muhitga jalb etish ularning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini uyg‘otishda eng asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunday muhitda tarbiya topayotgan bolalar o‘zlarini jamiyatdan uzilgan

ISSN 3030-3907

holda his etmaydilar, aksincha, ijtimoiy muloqot va o‘zaro yordam jarayonida mustaqil shaxs sifatida shakllanib boradilar. Bu esa kelajakda ularning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari va jamiyatning faol a’zosiga aylanishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Shu bilan birga, inklyuziv ta’limning samaradorligi nafaqat bolaning sinfga kelishi, balki butun pedagogik tizimning uning ehtiyojlariga moslashishi bilan belgilanadi. O‘qituvchilarning maxsus pedagogik tayyorgarligi, dars jarayonida tutorlik xizmatining yo‘lga qo‘yilishi va har bir o‘quvchi uchun individual yondashuvning ta’minlanishi tizimning muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Tadqiqotda aniqlanganidek, ota-onalar bilan o‘rnatilgan uzviy hamkorlik va oila muhitida maktabdagi tarbiyaviy ishlarning davom ettirilishi bolaning ijtimoiy moslashuvini sezilarli darajada tezlashtiradi. Oila va ta’lim muassasasi bir maqsad yo‘lida birlashgandagina, inklyuziv tarbiya o‘zining haqiqiy insonparvarlik mohiyatini namoyon etadi.

Zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish va maktablarda to‘siqsiz muhitni yaratish masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Bolaning jismoniy holatidan qat’i nazar, axborotni qabul qilish va bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi uning huquqiy va insoniy ehtiyojidir. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, sog‘lom bolalar ham inklyuziv muhitda tarbiyalanish orqali bag‘rikenglik, rahm-shafqat va kishilarni boricha qabul qilish kabi yuksak fazilatlarni egallaydilar. Bu jarayon jamiyatda diskriminatsiyaning kamayishiga va inson qadri hamma narsadan ustun turadigan ijtimoiy muhitning shakllanishiga olib keladi. Har bir bolaning iqtidorini kashf etish va unga teng imkoniyatlar taqdim etish orqali biz nafaqat ta’lim sifatini oshiramiz, balki adolatli va insonparvar kelajakni barpo etamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli Qarori. "Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". — Toshkent, 2020-yil 13-oktabr.
3. Vygotskiy L.S. "Defektologiya asoslari". — Moskva: Pedagogika, 2003. — 368 b.
4. Muminova L.R., Shomahmudova R.Sh. "Inklyuziv ta’lim: metodik tavsiyanoma". — Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2013. — 124 b.
5. Gulyamov S.S. "Inklyuziv ta’lim metodikasi va zamonaviy texnologiyalari". — Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. — 210 b.

ISSN 3030-3907

6. Nurmuhammedova Sh. "Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quv jarayonini tashkil etish". — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. — 186 b.
7. Ainscow M. "Developing Inclusive Schools: From Research to Action". — London: Routledge, 2016. — 240 p.
8. UNESCO. "Policy Guidelines on Inclusion in Education". — Paris, 2009. — 65 p.
9. Xalilov A.J. "Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi". — Toshkent: Noshir, 2022. — 195 b.

ISSN 3030-3907